



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI HUDUDIY MAHSULOTNING
HUDUDIY VA TARMOQLAR KESIMIDAGI TAHLILI. (2026-YIL YANVAR–MART)**

O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich

Ma‘mun universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dots.v.v

E-mail: niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz

Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: yakubov_sanatbek@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil yanvar–mart oylari uchun yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) ko‘rsatkichlari hududiy va tarmoqlar kesimida chuqur tahlil etiladi. Respublika bo‘yicha YaIM hajmi va o‘shish sur‘atlari, hududlarning YaIM shakllanishidagi ulushi, aholi jon boshiga YaHM ko‘rsatkichlari hamda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faollikdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *yalpi hududiy mahsulot, hududiy iqtisodiyot, tarmoqlar tarkibi, aholi jon boshiga YaHM, kichik tadbirkorlik, hududiy tafovutlar, iqtisodiy o‘shish.*

Аннотация: *В данной статье проводится углублённый анализ показателей валового регионального продукта (ВРП) Республики Узбекистан за январь–март 2026 года в разрезе регионов и отраслей. Анализируются объём и темпы роста ВВП по республике, доля регионов в формировании ВВП, показатели ВРП на душу населения, а также роль малого предпринимательства в экономической активности.*

Ключевые слова: *валовой региональный продукт, региональная экономика, отраслевая структура, ВРП на душу населения, малое предпринимательство, региональные диспропорции, экономический рост.*

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of the gross regional product (GRP) indicators of the Republic of Uzbekistan for January–March 2026 by regions and sectors. It examines the volume and growth rates of GDP at the national level, the contribution of regions to GDP formation, GRP per capita indicators, and the role of small entrepreneurship in economic activity.*

Keywords: *gross regional product, regional economy, sectoral structure, per-capita GRP, small entrepreneurship, regional disparities, economic growth.*



KIRISH

Milliy iqtisodiyotning hududiy va tarmoqlar kesimidagi tahlili zamonaviy iqtisodiy fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ko'rsatkichi nafaqat mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini, balki hududlar o'rtasidagi rivojlanish farqlarini ham aks ettiruvchi asosiy makroiqtisodiy indikator sifatida qabul qilingan [1].

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitini yaxshilash, xususiyl sektorni rivojlantirish va eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarning samaradorligini baholashda hududiy kesimda YaHM tahlili muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. 2026-yil yanvar–mart oylariga oid statistik ma'lumotlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining davom etayotganini, biroq hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada empirik tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2026-yil 27-aprelda e'lon qilingan press-relizi [1] dan foydalanilgan. Mazkur hujjat 14 ta ma'muriy-hududiy tuzilma (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha dastlabki YaHM ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. YaHM hisoblashning ishlab chiqarish usuli asosida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanilgan.

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar dastlabki baholash natijalariga asoslanganini alohida ta'kidlash lozim. Keyingi chorak yakunlari bo'yicha qayta baholash amalga oshirilishi mumkin, bu esa ko'rsatkichlarda ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi ehtimolini hisobga olish zarur.

ASOSIY QISM

2026-yil yanvar–mart oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti 447 935,3 mlrd so'mni tashkil etdi va 2025-yilning xuddi shu davriga nisbatan 8,7 foizga o'sdi [1]. Bu ko'rsatkich 2025-yildagi 6,8 foizlik o'sish sur'atidan 1,9 foiz punktga yuqori bo'lib, iqtisodiy dinamikaning kuchayganidan dalolat beradi.

Absolyut ko'rsatkichda esa YaIM 2025-yil birinchi choragi (372 829,9 mlrd so'm) bilan solishtirganda 75 105,4 mlrd so'mga, ya'ni 20,1 foizga ko'paydi. Biroq bu o'sishning bir qismini inflyatsiya omili tushuntirishi mumkin. Real ko'rsatkich (108,7%) va nominal ko'rsatkich (120,1%) o'rtasidagi farq inflyatsiyaning mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, 8,7 foizlik real o'sish sur'ati bu milliy iqtisodiyot uchun barqaror va sog'lom o'sish ko'rsatkichi sifatida baholanishi mumkin.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi va o'sish sur'ati, yanvar–mart

Ko'rsatkich	2025 yil hajmi, mlrd so'm	2025 yil o'sish, %	2026 yil hajmi, mlrd so'm	2026 yil o'sish, %



O'zbekiston Respublikasi	372 829,9	106,8	447 935,3	108,7
O'sish (mlrd so'm)	–	–	+75 105,4	+1,9

Mazkur jadvalda YaIM hajmining absolyut va nisbiy o'sishini ko'rsatadi. 2026-yil birinchi choragida nafaqat hajm ko'rsatkichi, balki o'sish sur'ati ham yaxshilanganligini ko'rish mumkin bu iqtisodiy jadallashish hodisasini tasdiqlaydi.

2-jadval. 2025–2026-yillarda YaIM hajmi dinamikasi (yanvar–mart), mlrd so'm

Yil	YaIM jami	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar
2025 (yan.–mart)	372 829,9	~34 438,0	~115 608,0	~220 676,0
2026 (yan.–mart)	447 935,3	36 182,4	124 852,4	240 079,0
O'sish, %	+20,1%	+5,1%	+8,0%	+8,8%

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki 2025 va 2026-yillar o'rtasidagi YaIM hajmining nominal va haqiqiy o'sishi xizmatlar sohasi mutlaq hajm jihatidan eng katta o'sishni ta'minlagan. 2026-yil yanvar–mart oylarida respublika YaIM shakllanishida hududlarning ishtiroki sezilarli darajada notekis taqsimlangan [1]. Toshkent shahri 94 510,1 mlrd so'm bilan 21,1 foizlik ulushni egallagan holda mutlaq yetakchi bo'lib qolmoqda. Bu ko'rsatkich Toshkent shahrining respublika iqtisodiyotidagi markaziy o'rnini tasdiqlab, mamlakatdagi eng yirik xizmatlar bozori, moliya, savdo, boshqaruv, axborot texnologiyalari markazlari aynan shu shaharda joylashganini aks ettiradi.

Navoiy viloyati 52 553,1 mlrd so'm bilan 11,7 foizlik ulushni tashkil etib, ikkinchi o'rinni egallaydi. Bu ko'rsatkich Navoiy viloyatining nisbatan kichik aholi soniga qaramasdan, og'ir sanoat xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NGMK) va «Navoi Mining» kabi yirik sanoat korxonalarini hisobiga yuqori yalpi qo'shilgan qiymat yaratayotganini ko'rsatadi.

Toshkent viloyati (9,7%), Samarqand viloyati (6,2%), Farg'ona (5,4%) va Andijon (5,1%) viloyatlari o'rta guruhni tashkil etadi. Qolgan hududlar 2,5–4,4 foiz oralig'ida bo'lib, past ulushli guruhni hosil qiladi. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida (1,7%) kuzatilgan.

3-jadval. YaIM shakllanishida hududlarning ulushi, 2026-yil yanvar–mart

Hudud	YaHM hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %
Toshkent shahri	94 510,1	21,1 %
Navoiy viloyati	52 553,1	11,7 %
Toshkent viloyati	43 243,1	9,7 %
Samarqand viloyati	27 568,3	6,2 %
Farg'ona viloyati	24 361,9	5,4 %
Andijon viloyati	22 701,2	5,1 %
Qashqadaryo viloyati	19 548,0	4,4 %
Buxoro viloyati	18 176,9	4,1 %
Namangan viloyati	17 403,4	3,9 %
Xorazm viloyati	14 280,8	3,2 %
Surxondaryo viloyati	13 415,5	3,0 %
Qoraqalpog'iston Resp.	12 495,8	2,8 %
Jizzax viloyati	11 067,8	2,5 %
Sirdaryo viloyati	7 756,4	1,7 %

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, birinchi uch hudud (Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyati) respublika YaIM ning 42,5 foizini tashkil etadi. Bu holat iqtisodiy salohiyatning yuqori darajada geografik konsentratsiyasini ko'rsatadi. Qolgan 11 ta hudud esa 57,5 foizni teng bo'lmagan tarzda taqsimlagan.

2026-yil yanvar–mart oylarida respublika bo'yicha YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi quyidagini ko'rsatdi [1]: xizmatlar sohasi — 240 079,0 mlrd so'm (53,6%), sanoat — 124 852,4 mlrd so'm (27,9%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi — 36 182,4 mlrd so'm (8,1%), qurilish — 26 393,0 mlrd so'm (5,9%), mahsulotlarga sof soliqlar — 20 428,5 mlrd so'm (4,6%). Xizmatlar sohasining dominant mavqei postindustrial iqtisodiyot belgisi sifatida baholanishi mumkin. Biroq O'zbekiston sharoitida bu sohaning ichki tarkibini diqqat bilan o'rganish lozim. Masalan an'anaviy chakana savdo, uy-joy xizmatlari va maishiy xizmatlar ko'proq ifodalaniib, raqamli va ilmiy-texnik xizmatlar ulushi hali ham past. Shuningdek, Toshkent shahrida xizmatlar ulushi 70,9% ga yetishi bu ko'rsatkinichning milliy o'rtachani yuqoriga tortayotganini ko'rsatadi.



3-jadval. YaIMning tarmoqlar bo'yicha hajmi va tarkibi, 2026-yil yanvar–mart, mlrd so'm

Tarmoq	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish, %	Absolyut o'sish	Reyting
YaIM jami	447 935,3	100,0	108,7	+75 105,4	–
Xizmatlar sohasi	240 079,0	53,6	108,8	–	1
Sanoat	124 852,4	27,9	108,0	–	2
Q/X, o'rmon, baliqchilik	36 182,4	8,1	105,1	–	3
Qurilish	26 393,0	5,9	115,0	–	4
Mahsulotlarga sof soliqlar	20 428,5	4,6	108,2	–	5

Jadvaldan ko'rinadiki, tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tahlil YaIM shakllanishida xizmatlar sohasining dominant o'rnini tasdiqlaydi. Qurilish tarmog'ining eng yuqori o'sish sur'ati (115,0%) bu kapital investitsiyalarning ko'payishi va qurilish faolligining oshishi bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligining nisbatan past o'sish sur'ati (105,1%) mavsumiy omillarni aks ettiradi.

Qurilish tarmog'ining 15,0 foizlik o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, bu investitsion faollikning kuchayganidan, yangi sanoat va tijorat ob'ektlari qurilishi jadallashganidan, davlat infratuzilma loyihalarining amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish tarmog'ining 170,0 foizlik o'sishi bu bir qator yirik infratuzilma loyihalari boshlanganligi sababli bir martalik effekt bo'lishi mumkin, ammo mazkur regionning investitsion jozibadorligi oshayotganining ham belgisi sifatida baholanishi o'rinli.

Xizmatlar sohasining 108,8 foizlik o'sishi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan biroz yuqori bo'lib, bu sektor barqaror o'sish traektoriyasida ekanini ko'rsatadi. Toshkent shahrida esa xizmatlar tarmog'i 115,1 foizga o'sgan, bu umummilliy xizmatlar dinamikasining asosiy harakatlantiruvchisi hisoblanadi.

4-jadval. Tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'atlari (%), 2026-yil yanvar–mart

Hudud	YaIM jami	Q/X	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
O'zbekiston Resp.	108,7	105,1	108,0	115,0	108,8
Toshkent shahri	113,0	–	107,1	109,3	115,1



Xorazm viloyati	110,6	105,0	108,1	127,6	110,4
Farg'ona viloyati	110,4	104,3	108,0	125,3	110,5
Samarqand viloyati	109,6	105,3	109,0	109,7	110,7
Buxoro viloyati	109,6	106,0	108,2	122,5	108,7
Surxondaryo viloyati	109,1	109,7	108,7	109,7	108,8
Qoraqalpog'iston R.	112,9	102,3	107,4	170,0	109,4
Navoiy viloyati	106,1	105,3	105,3	124,3	108,3

Ko'rishimiz mumkinki, qurilish tarmog'ining o'sish sur'atlari barcha hududlarda eng yuqori bo'lgan. Bu kapital investitsiyalarning faollashuvi uchun qulay muhit yaratilayotganini ko'rsatadi. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining o'sishi (109,7%) milliy o'rtachadan (105,1%) yuqori bo'lishi bu hududda agrar sektor potensialining ishlanayotganidan dalolat beradi.

2026-yil yanvar–mart oylarida respublika bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 11 692,5 ming so'mni tashkil etdi, o'sish sur'ati esa 106,7 foizni ko'rsatdi [1]. Biroq bu respublika o'rtacha ko'rsatkichi ortida hududlar o'rtasida juda katta tafovut yashiringan.

Navoiy viloyati 47 196,3 ming so'm bilan mutlaq birinchi o'rinni egallaydi. Bu ko'rsatkich respublika o'rtachasidan 4,03 marta yuqori. Shu bilan birga, o'sish sur'ati 104,5 foiz bilan respublika o'rtachasidan past bu aholining nisbatan tezroq o'sishi yoki yalpi mahsulot hajmining nisbiy sekinlashuvidan dalolat berishi mumkin. Navoiy viloyatidagi yuqori aholi jon boshiga YaHMning asosiy sababi viloyatning kam aholi bo'lishi (taxminan 1,1 mln kishi) va shu bilan birga NGMK kabi ulkan sanoat gigantlarining mahsulot qiymatining yuqoriligi.

Toshkent shahri 29 654,9 ming so'm bilan ikkinchi o'rinni egallab, 110,6 foizlik yuqori o'sish sur'atini ko'rsatmoqda. Bu esa Toshkent shahrining iqtisodiy dinamikasining tezlashayotganidan guvohlik beradi. Toshkent viloyati 13 651,7 ming so'm bilan uchinchi o'rinda turadi va respublika o'rtachasidan biroz yuqori darajada.

Surxondaryo viloyati (4 445,3 ming so'm), Qashqadaryo (5 248,6 ming so'm) va Namangan (5 444,2 ming so'm) viloyatlari eng past ko'rsatkichlarni demonstratsiya qilmoqda. Bu hududlar ko'p sonli aholisi va nisbatan past YaHM hajmi sababli quyi guruhda qolmoqda. YaHM yuqori bo'lishi har doim aholi daromadi yuqori degani emasligini ta'kidlash zarur. Navoiy viloyatida kon-metallurgiya korxonalarining YaHMga qo'shgan ulushi yuqori bo'lsa-da, bu boylikning keng aholiqatlamlarga tarqalishi mexanizmlari (soliqlar, ish haqi, dividendlar) orqali amalga oshadi va bu mexanizmlar hamma hududlarda bir xil samarali ishlamaydi.



5-jadval. Aholi jon boshiga YaHM, 2025–2026-yillar yanvar–mart, ming so'm

Hudud	2025 yil (ming so'm)	2025 o'sish %	2026 yil (ming so'm)	2026 o'sish %
Navoiy viloyati	36 334,8	108,5	47 196,3	104,5
Toshkent shahri	25 228,4	107,4	29 654,9	110,6
Toshkent viloyati	11 315,2	104,7	13 651,7	105,8
Sirdaryo viloyati	6 733,1	97,7	8 182,8	107,1
Buxoro viloyati	7 314,8	104,4	8 616,3	108,1
Jizzax viloyati	5 996,7	105,3	7 049,1	105,7
Xorazm viloyati	5 838,9	104,9	6 891,9	108,6
Andijon viloyati	5 498,1	103,8	6 434,9	106,7
Samarqand viloyati	5 201,8	104,1	6 282,2	107,5
Qoraqalpog'iston Resp.	5 054,1	103,0	6 079,2	111,7
Farg'ona viloyati	4 930,3	104,6	5 757,6	108,4
Namangan viloyati	4 701,6	104,2	5 444,2	106,8
Qashqadaryo viloyati	4 597,1	103,1	5 248,6	105,4
Surxondaryo viloyati	3 825,5	102,6	4 445,3	106,8

Jadvaldan aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichida Navoiy viloyati (47 196,3 ming so'm) bilan Surxondaryo viloyati (4 445,3 ming so'm) o'rtasidagi farq deyarli 10,6 barobar. Bu O'zbekiston hududlari o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keng tafovutni aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiy tafovutlar bir qator tarkibiy omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, tabiiy resurslar joylashuvi. Navoiy viloyatida oltin, uran va boshqa qimmatbaho xom-ashyo zahiralari mavjudligi ushbu hududda katta yalpi qo'shilgan qiymat yaratish imkonini beradi. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida uglevodorod resurslari ham YaHM ko'rsatkichlarini nisbatan yuqori saqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, aholining notekis taqsimlanishi: aholi ko'p bo'lgan viloyatlar (Farg'ona, Andijon, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo) aholi jon boshiga YaHM bo'yicha pastroq ko'rsatkichlarga ega, chunki iqtisodiy faollikning o'sishi aholining o'sishidan sezilari orqada qolmoqda.

Uchinchidan, iqtisodiy ixtisoslashuvning nomutanosibliigi. Hududlarning ko'pchiligi past daromad keltiruvchi qishloq xo'jaligi va an'anaviy xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan bo'lib, yuqori texnologiyali sanoat va ilm-fan tutashiq ishlab chiqarish



hududlarda sust rivojlangan. Bu muammo, ayniqsa, Sirdaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, transport va logistika infratuzilmasining taraqqiyotidagi farqlar: Toshkent shahri va atrofidagi hududlar, shuningdek, Farg'ona vodiysi aholisi yuqori darajadagi transport ulanishiga ega bo'lsa, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston hududlari geografik jihatdan mas'ul markazlardan uzoqlashganligi sababli iqtisodiy integratsiyadan qolishmoqda.

Shu bilan birga, 2026-yil birinchi choragi natijalariga ko'ra ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Barcha hududlarda iqtisodiy o'sish qayd etilgan (2025-yilda salbiy bo'lgan Sirdaryo viloyati ham tiklandi), qurilish tarmoqlarining jadal o'sishi investitsion faollikning oshganini ko'rsatmoqda, Qoraqalpog'iston Respublikasining YaHM o'sish sur'ati (112,9%) respublika o'rtachasidan yuqori bo'lishi bu regionning iqtisodiy tiklash jarayoni davom etayotganini anglatadi.

XULOSA

2026-yil yanvar–mart oylarida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida 8,7 foizlik real o'sish sur'ati qayd etilib, bu ko'rsatkich 2025-yildagi 6,8 foizlik sur'atdan yuqori bo'ldi. Xizmatlar sohasi YaIM tarkibida 53,6 foizlik ulushi bilan yetakchiligini saqlaydi va 108,8 foizlik o'sish sur'atini ko'rsatdi. Qurilish tarmog'ining 115,0 foizlik o'sishi investitsion faollikning kuchayganini bildiradi. Navoiy viloyatida aholi jon boshiga YaHM (47 196,3 ming so'm) respublika o'rtachasidan 4 marta ortiq bo'lishi bu viloyatning sanoat ixtisoslashuvi birinchi navbatda kon-metallurgiya kompleksi bilan bevosita bog'liq. YaHM yuqori bo'lishi aholi turmush darajasining avtomatik ravishda yuqori ekanini anglatmaydi bu bo'ylarning qayta taqsimlanishi mexanizmlari, ish haqi darajasi va ijtimoiy infratuzilma sifatiga ham bog'liq. Olib borilgan tahlil asosida hududiy iqtisodiy siyosat uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi. Bular:

Hududlarda yuqori qo'shilgan qiymatli sanoatni rivojlantirish. Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida yuqori texnologiyali qayta ishlash sanoati, agrosanoat klasterlari va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida maxsus investitsion imtiyozlar tizimini joriy etish zarur.

Xizmatlar sohasini zamonaviy va raqamli xizmatlar hisobiga kengaytirish: IT-xizmatlar, moliyaviy texnologiyalar (fintech), onlayn ta'lim va telemedisinani rivojlantirish orqali xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyasini ishlab chiqish, ayniqsa Farg'ona vodiysi viloyatlari uchun.

Hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish: Navoiy va Toshkent shahri kabi yuqori YaHMli hududlardan past YaHMli hududlarga texnologiya transferi, kadrlar tayyorlash va moliyaviy resurslarni yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasi yalpi hududiy mahsuloti. 2026-yil yanvar–mart oylari uchun." Press-reliz. E'lon qilingan sana: 27.04.2026. URL: <https://stat.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "Milliy hisoblar tizimi. YaHMni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom." Toshkent: Stat.uz.
3. Mustafayev A., Toshmatov N. Hududiy iqtisodiyot va boshqaruv. Darslik. Toshkent: TDIU, 2023.
4. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Transforming to a More Productive Economy. Washington D.C.: World Bank, 2024.
5. IMF. Republic of Uzbekistan: Article IV Consultation Staff Report. Washington: IMF, 2025.
6. Abdullayev Y. O'zbekistonda hududiy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2024, №3, b.45–62.
7. Urinboev, U. O. (2024). Cluster Development in Uzbekistan's Economy: Production Volume, Investment Flows, AND Export Dynamics (2022–2024). *American Journal of Business Management, Economics, and Banking*, 43, 50-56.
8. Yakubov, S. A. Individual Tadbirkorlik Va Mustaqil Bandlik Asosida Olinadigan Daromadlarni Soliqqa Tortishning Fundamental Asoslari. *Green Economy and Development*, 3(9), 666940.
9. Niyozmetov, D. (2025, January). FOREIGN EXPERIENCE OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In *International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies* (Vol. 13, pp. 59-60).
10. Aarthi, S., Ravikumar, R. N., Balakrishnan, R., Pavithra, K., & Jumaniyozov, F. (2026). Blockchain for Seamless and Transparent Smart Hospitality Operations. In *Smart Operations and Enhancing Guest Experience in the Hospitality Industry* (pp. 187-218). IGI Global Scientific Publishing.
11. Garia, P., Mamadiyarov, Z., Jumaniyozov, F., Deogaonkar, A., Vichoray, C., & Mittal, A. (2025, August). Comparative Analysis of Random Forest and ANN Models for Urban Air Quality Index Prediction. In *2025 3rd International Conference on Sustainable Computing and Data Communication Systems (ICSCDS)* (pp. 238-243). IEEE.
12. Jumaniyozov, F. (2024). Opportunities to create new jobs in the context of the transition to a 'green' economy. *University Research Base*, 264-267.
13. Jumaniyozov, F. (2025). Xudarganov T. Hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishining xorij tajribasi. *Молодые ученые*, 3, 18.
14. Jumaniyozov, F. (2025). Mintaqada barqaror iqtisodiy o 'sishni ta'minlashda yashil mehmonxonalar ahamiyati. *University research base*, 272-275.



15. Sherjonov, S., Axmedova, D., Masharipova, X., Niyozmetov, D., & Jumaniyozov, F. (2025, November). The impact of CO2 emissions and renewable energy on economic growth in Uzbekistan: A VECM analysis. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3331, No. 1, p. 030024). AIP Publishing LLC.

16. Sabbir, S., Karmakar, S., Ghosh, A., Jumaniyozov, F., Akhmedov, S., Aziz, M. T., & Mahmud, T. (2025, July). A Novel Hybrid Approach for Load Forecasting: Multi-Head Attention Integrated LCG Model with Statistical Outlier Management. In *2025 International Conference on Quantum Photonics, Artificial Intelligence, and Networking (QPAIN)* (pp. 1-6). IEEE.